



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Po'latova Zulfiya Hasanbo'y qizi
Andijon viloyati Bo'ston tumani 3-maktab

Annotatsiya: Biologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish va zamonaviy metodlardan foydalanish dars samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Darsda "Akvarium" "metodini qo'llash orqali o'quvchilar biologiyaga oid bilimlarini yanada mustahkamlaydi, undan tashqari ularning dunyoqarashi kengayadi. Darsni muzokaralar yordamida o'rganish, amaliy o'rganish o'quvchilar bilimini oshirishga xizmat qiladi.

Abstract: Organization of practical exercises in biology classes and use of modern methods serve to increase the efficiency of the lesson. By using the "Aquarium" method in the lesson, students will further strengthen their knowledge of biology, besides, their worldview will expand. Studying the lesson with the help of negotiations, practical learning will increase the knowledge of students.

Аннотация: Организация практических занятий и использование современных методов на занятиях по биологии служат повышению эффективности урока. Используя на уроке метод «Аквариум», учащиеся еще больше укрепят свои знания по биологии, кроме того, расширится их мировоззрение. Изучая урок с помощью переговоров, практические занятия послужат повышению знаний учащихся.

Kirish so'zlar: "Akvarium" metodi, amaliy o'rganish, maket, jonli tabiat, tahlil, mulohaza, interfaol metod.

Key words: "Aquarium" method, practical learning, model, living nature, analysis, reflection, interactive method.

Ключевые слова: метод «Аквариум», практическое обучение, модель, живая природа, анализ, рефлексия, интерактивный метод.

Biologiya fani tabiat, atrof-muhit, borliq, insonlar va hayvonlar, turli xil organizmlar haqidagi mavzularni qamrab olgani uchun o'quvchilar uchun qiziq va eng kerakli bo'lgan bilimlar manbai bo'lganligi uchun bu fanni yanada qiziqarli tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni beqiyos.

" Akvarium"metodini ko'rib chiqamiz :



Bunda 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo'ylab o'tiradilar. Ular – «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o'tiradilar (yoki turadilar). Ular – «baliq ovchilari». Ichki doira a'zolari («baliqlar») o'qituvchi bergan savolni faol muhokama qiladilar. «Baliq ovchilari» esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biror o'quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo'shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. Shunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so'ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo'ylab o'tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanish doiralari:

Tabiiy va aniq fanlarni o'rganish jarayonlarida qo'llaniladi.

Afzalliklari:

✓ Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi.

✓ Muhokama jarayoniga erkin qo'shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi.

✓ Tahliliy fikrlash, e'tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi.
Nutqni va teskari

✓ aloqa texnikasini rivojlantiradi.1

Bu metod orqali o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, o'z fikrida mustahkam turishni o'rganadilar, yangi bilimlar o'rganadilar.

Biologiya darsida faol metodlar bilish faoliyati va o'quvchilarni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltiradi. Bu model o'quvchi – o'qituvchi muloqoti, doimiy ijodiy (uy ishi) topshiriqlaridan iborat. Biologiya darsida interfaol darsini tashkil etish hayotiy tajribaga asoslanib,, rolli o'yinlar ijro etish, turli vaziyatlardan chiqish, topshiriqlarni ko'pchilik bo'lib hal etish, savollarga javob izlashga qaratiladi. Interfaol dars turi an'anaviy dars turidan keskin farq qilib, o'qituvchidan pedagogik bilim, mahorat va tajribani talab qiladi. Shuning uchun darsning tuzulishi faqat o'qitishning interfaol model elementlari – interfaol texnologiya model elementlari – ya'ni aniq metod va usullardan iborat. Ular darsni ma'naviy va yanada qiziqarli, mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Holbuki, butun dars jarayonini interfaol dars qilib o'tkazish mumkin. Interfaol texnologiyani o'zlashtirish jarayonida (yangi mavzuni o'tib bo'lgach) va bilimlarni qo'llash jarayonida, maxsus darslarda, so'rov



jarayonida qo'llashi mumkin. O'quvchini darsda faolligi va diqqatini boshqa vaziyatlar olib o'tmasligi foydali bo'ladi hamda ta'lim sifati oshib boradi.

Ushbu jarayonga biz quyidagicha taklif bermoqdamiz:

- ta'lim jarayonida o'quvchilarda tasavvur imkoniyati yetarli bo'lmaganligi uchun dars jarayoniga modellashtirish texnologiyalarini olib kirish;
- darslarda texnik qurilmalarni amaliy foydalanish imkoni bo'lmagan hollarda
- ishlash jarayonini virtual holda yaratish va natijani ko'rsatish;
- modellashtirilgan obyektlar asosida tahlilni olib borish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlash jarayonida ularni ko'rsatishda;
- biologiya darslarida esa maketlar va jonli tabiatdan unumli foydalanish mumkin.

Biologiya darslarida ko'proq amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni o'quvchilar darsni nazariydan ko'ra ko'proq amaliy o'rganishni xohlaydilar. Bu jarayonda turli xil maketlar, jonli tabiat, hayvonlar bilan o'rganish maqsadga muvofiq.

Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi. Darsning modul va algoritmlaridan an'anaviyda har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalansa, noan'anaviyda har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.

Beshinchidan, bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari an'anaviyda muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa, noan'anaviyda muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil tarzda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash»,



«Atamalar zanjiri», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlaming turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7, Yuldasheva Nasiba, BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR, 149-150-b
2. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2022, Nasibaxon Solijonovna Jamalova, BIOLOGIYA FANIDA METODLAR VA ULARNING TA'SIRI, 753-754-b
3. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/si, Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi, Xolmatova Irodaxon Nurmuhammad qizi, BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLAR, 142-b